

Qochoqlar Huquqlarini Ta'minlashning Huquqiy Asoslari Hamda Mexanizmlari: Himoya Va Integratsiya Masalalari

Rayimjonov Ilhomjon Imomali o'g'li¹

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy xalqaro huquq doirasida qochoqlarning huquqiy maqomi, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya, shuningdek 1967-yilgi Protokol hamda boshqa xalqaro hujjatlar doirasida shakllangan normativ-huquqiy asoslarga qaratiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekistonning bu boradagi ishtiroki, milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar va xalqaro huquqiy mexanizmlarning samaradorligi muhokama qilinadi. Turli nazariy yondashuvlar (liberal, realistik, kosmopolit) orqali qochoqlarning huquqlarini ta'minlashdagi xalqaro amaliyot tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mavjud muammolarga yechim sifatida aniq takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Qochoqlar, xalqaro huquq, boshpana huquqi, inson huquqlari, 1951-yilgi Konvensiya, O'zbekiston, qaytarmaslik prinsipi, migratsiya siyosati, huquqiy mexanizmlar, suverenitet, UNHCR faoliyati.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida insonlarning turli sabablarga ko'ra o'z vatanlarini tark etib, boshqa davlatlardan boshpana izlash holatlari ortib bormoqda. Urushlar, diniy yoki etnik ta'qiblar, siyosiy beqarorlik, ekologik falokatlar – bularning barchasi odamlarni majburan migratsiyaga undaydi. Ushbu holatda eng zaif qatlam – bu **qochoqlardir**. Ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, insoniy hayotni ta'minlash, davlatlar va xalqaro hamjamiyat zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Mavzuning xalqaro huquqiy nuqtai nazardan nega muhimligini tushunish – bu faqat nazariy emas, amaliy jihatdan ham juda dolzarb bo'lib, quyida bir nechta asosiy sabablar orqali buni tushunish mumkin:

Birinchidan, qochoqlik – bu birgina davlat chegarasida emas, bir nechta davlatlar, mintaqalar va hatto butun dunyoni qamrab oluvchi inqiroz. Shu sababli, bu muammoni hal qilishda xalqaro hamkorlik va huquqiy yondashuvlar muhim o'rinn tutadi. Masalan, birgina BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarligi (UNHCR) o'z harakatlarini faqat xalqaro normalar asosida yuritadi.

Ikkinchidan, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya va 1967-yilgi Protokol qochoqlarning asosiy huquqlari – boshpana, hayot, ta'lim, ish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu huquqlar milliy qonunlarda bo'lmasligi mumkin, lekin xalqaro konvensiyalar yordamida ularni himoya qilish imkonи paydo bo'ladi.

Uchinchidan, qochoqlarning huquqlari – bu asosiy inson huquqlarining bir ko'rinishi. Ular doimiy uy-joyi, fuqaroligi yoki huquqiy maqomi bo'lmasa ham, xalqaro normalar asosida inson sifatida munosib hayotga haqli. Bu jihat xalqaro miqyosda inson huquqlarining markazida turadi. Xususan, "**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi**" ning **1-moddasida** qochoq bo'lishiga qaramasdan, har bir inson o'z sha'ni, erkinligi va huquqlari jihatidan inson sifatida teng huquqlarga egaligi, **14-moddasida** har bir inson ta'qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o'sha boshpanadan foydalanish huquqiga egaligi, **9-moddasida** hech kim asossiz ravishda hibsga olinishi, ozodlikdan mahrum qilinishi yoki surgun qilinishi mumkin emasligi, **13-15-moddalari** va **25-moddasi** esa qochoqlarning

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va inson huquqlari mutaxassisligi magistranti, rayimjonovilxomjon2001@gmail.com



o‘z mamlakatlarini tark etishga va xavfsizlik bo‘yicha boshqa joyga o‘tishga, yaqinlarini himoya qilishga bo‘lgan huquqlari qo‘llab-quvvatlanadi.

To‘rtinchidan, Yevropa Inson Huquqlari Sudi, BMT shartnomaviy qo‘mitalari kabi organlar orqali davlatlarning qochoqlarga nisbatan noto‘g‘ri munosabatlari aniqlanib, xalqaro bosim yoki majburiy qarorlar orqali to‘g‘rilanadi. Masalan, Italiya va Gretsiyaga qarshi qabul qilingan qarorlar bu sohada amaliy natijalarni bergen.

Beshinchidan, qochoqlar muammosini har bir davlat alohida hal eta olmaydi. Masalan, urush yoki tabiiy ofatlar natijasida millionlab odamlar ko‘chishga majbur bo‘lsa, bu butun mintaqaga ta’sir qiladi. Shuning uchun xalqaro huquq qochoqlar bo‘yicha yagona standart va yondashuvlarni ishlab chiqadi, bu esa barcha davlatlar uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston ham inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarayotgan davlat sifatida qochoqlar huquqlarini ta‘minlash yo‘lida muayyan harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya doirasida migratsiyaga oid masalalar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar manfaatini ifodalovchi qonun loyihamarini ishlab chiqish nazarda tutilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamkorlikka va inson huquqlarini ta‘minlashga harakat qilar ekan bu borada qochoqlarning huquq va manfaatlarini ifodalovchi milliy qonunchilik normalarga ham alohida e’tibor berishi va uni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo‘lidan borishi zarurligini ko‘rsatadi. Qochoqlar huquqlarining xalqaro huquqiy asoslari – bu davlatlararo hamjihatlik, inson sha’ni va huquqlarini hurmat qilish, global barqarorlik va adolatni ta‘minlash uchun bo‘lgan asosiy vositadir.

“Qochoqlar huquqlarini ta‘minlashning huquqiy asoslari hamda mexanizmlari” bo‘yicha **asosiy o‘rganiladigan huquqiy va/yoki ilmiy muammo** quyidagicha izohlanadi:

- Xalqaro va milliy darajada qochoqlarning inson huquqlarini to‘liq va samarali ta‘minlash mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi yoki ularning huquqiy kafolatlar bilan amaliyot o‘rtasida tafovut mavjudligi;
- Ba’zi davlatlar, xususan O‘zbekiston 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyaga a’zo emasligi;
- A’zo davlatlarning o‘z konstitutsiyalari yoki qonunchiligidagi konvensiya talablarini to‘liq aks ettirmaganligi;
- Qochoqlar boshpana olish jarayonida diskriminatsiya, hujjatsiz qolish yoki rasmiy tan olishdagi byurokratik to‘siqlarga duch kelishadi;
- Ular ko‘pincha sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik va ijtimoiy xizmatlarga teng kirish imkoniga ega emas;
- Ba’zi hukumatlar milliy xavfsizlik yoki immigratsiya siyosatini asos qilib, qochoqlarning huquqlarini cheklashadi. Bu esa xalqaro huquq tamoyillari, ayniqsa “qaytarmaslik” (non-refoulement) prinsipiiga zid hisoblanadi;
- Turli davlatlar sudlari qochoqlarga nisbatan turlicha yondashadi, bu esa huquqiy muqarrarlik va barqarorlik tamoyillariga zarar yetkazadi.

Ushbu ishning **maqsadi** – qochoqlar huquqlarini ta‘minlashda xalqaro va milliy huquq normalarining o‘rnini, ular o‘rtasidagi muvofiqlik, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularning yechimlari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishdir.

Tadqiqot metodlari sifatida normativ-huquqiy tahlil, taqqoslash va amaliy misollar asosidagi yondashuvlardan foydalaniladi.



Ilmiy-nazariy qism

2. Ilmiy-nazariy yondashuvlar va akademik munozaralar

Qochoqlarning huquqlarini ta'minlash masalasi zamonaviy xalqaro huquq va inson huquqlari nazariyalarida dolzarb o'rinn egallaydi. Bu sohadagi ilmiy yondashuvlar odatda inson huquqlari, davlat suvereniteti, xavfsizlik va global adolat mezonlari asosida shakllanadi. Xalqaro huquqda qochoqlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha turli nazariy qarashlar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi asosiy farqlar huquqiy yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi va davlatlarning xalqaro majburiyatlarga munosabatida aks etadi.

1. Inson huquqlari yondashuvi (liberal-huquqiy nazariya)

Mazkur yondashuv BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya (1951) kabi asosiy hujjatlarga tayangan holda, har bir inson – jumladan qochoq maqomidagilar ham – asosiy inson huquqlariga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu nazariyaga ko'ra, davlatlar xalqaro huquqiy majburiyat sifatida qochoqlarning huquqlarini hurmat qilishi va himoya qilishi kerak. Chunki, davlat uchun xalqaro huquq subekti sifatida qochoqlarning huqlarini himoya qilishni ta'minlashi inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas qismidir².

2. Realistik yondashuv (davlat suvereniteti yondashuvi)

Realizmga asoslangan yondashuv esa davlat manfaatlari, suvereniteti va xavfsizlik masalalarini ustuvor deb biladi. Bu nazariyada boshpana berish har bir davlatning siyosiy tanlovi sifatida ko'rildi. Davlatlar migratsion oqimlar, iqtisodiy resurslar, milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni inobatga olib, o'z hududiga qochoqlarni qabul qilish yoki qilmaslik bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi³.

Ushbu yondashuv bir qarashda, davlat manfaatlari inson huquqlaridan ustun qo'yilayotgani ko'rsatsada. Lekin, har bir davlat, avvalo, o'z fuqarolarining xavsizligini va ular uchun yaxshi yashash kafolatini birinchi o'ringa qo'yadi. Chunki, dunyo amaliyotida qochoqlar borib joylashgan davlatda uchun ularga ijtimoiy, siyosiy jihatdan g'amxo'rlik qilish mehmon mezbon davlat uchun ham moliyaviy ham siyosiy mas'uliyatni yuklaydi. Shu boisda, hozirda 1951-yilgi konvensiyaga qo'shilgan davlatlarga bu muammolar jiddiy qiyinchilik tug'dirmoqda. Xususan, Turkiya bu amaliyotni eng ko'p o'zida sinab ko'rayotgan davlat hisoblanadi.

3. Kosmopolit yondashuv (global adolat nazariyasi)

Kosmopolit yondashuvda esa insoniyat yagona global jamoa sifatida qaraladi. Har bir inson, davlat fuqaroligidan qat'i nazar, asosiy huquqlar va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu qarashlar J. Rawls, T. Pogge kabi adolat nazariyachilari tomonidan ilgari surilgan. Ularning fikricha, global tenglik va axloqiy majburiyatlar asosida qochoqlarga yordam ko'rsatish har bir rivojlangan davlatning vazifasidir⁴

Nazariy yondashuvlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar

Masala	Inson huquqlari yondashuvi	Realistik yondashuv	Kosmopolit yondashuv
Boshpana berish	Huquqiy majburiyat	Siyosiy tanlov	Global axloqiy vazifa
Davlat roli	Xalqaro huquqqa bo'ysunadi	Suveren qaror qabul qiladi	Transmilliy javobgarlik
Chegaralar	Inson huquqlari ustuvor	Chegara daxlsizligi muhim	Chegaralar nisbiy hisoblanadi

² Goodwin-Gill, G. S., & McAdam, J. (2007). *The Refugee in International Law*. Oxford University Press. Part 1, REFUGEES: 15-49 pages.

³ Hathaway, J. C. (2005). The Rights of Refugees under International Law. Cambridge University Press.https://www.researchgate.net/publication/228008808_World_Poverty_and_Human_Rights

⁴ Pogge, T. (2002). *World Poverty and Human Rights*. Polity Press.



Mustaqil munosabat

Qochoqlar huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro huquq va inson huquqlari nazariyasi doirasida turli yondashuvlar asosida tahlil etildi.

Liberal yondashuv asosida inson huquqlari universalligi, ya'ni har bir inson tug'ilganidan boshlab teng huquqlarga ega ekanligi yotadi. Bu yondashuvga ko'ra, davlat chegaralari odamlarning asosiy huquqlarini cheklamasligi kerak.

Realist yondashuv esa suverenitet tamoyiliga tayangan holda har bir davlat o'z manfaatlarini birinchи o'ringa qo'yadi. Bu yondashuv bo'yicha davlatlar boshipana berish masalasida erkin qaror chiqaradilar.

Kosmopolit yondashuv esa barcha insonlarning global fuqarolik maqomiga ega bo'lishi zarur, degan g'oyani ilgari suradi. Bu g'oya bo'yicha qochoqlarga yordam berish – butun insoniyat zimmasidagi burchdir.

Akademik munozaralarda asosiy kelishmovchilik inson huquqlarining universalligi va davlatlarning suveren huquqlari o'rtasidagi muvozanatga borib taqaladi. Davlatlar inson huquqlarini tan olgan bo'lsa-da, amaliyotda bu huquqlarni ta'minlash borasida turlicha siyosat yuritadi.

Huquqiy asoslar

Xalqaro huquqiy hujjatlar:

- 1951 yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya** va **1967 yilgi Protokol** ushbu sohaga oid asosiy xalqaro hujjatlar bo'lib, qochoq maqomi, ularning huquq va burchlari, boshipana beruvchi davlatlarning majburiyatları belgilab bergan. Ushbu konvensiyada qochoq tushunchasi aniq belgilangan, ammo u ma'lum bir toifani qochoq deb e'tirof etadi, 1967-yilgi protokolda esa qochoq tushunchasi kengaytirilib zamonga moslashtirildi. Konvensiya va Protokolga qo'shilish ixtiyoriy bo'lib, qo'shiluvchi davlatlar BMT kotibiga qo'shilish to'g'risida hujjatlarni topshiradi.
- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)**: 14-moddasida har bir inson ta'qibdan boshipana izlash va undan foydalanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Qochoqlar huquqlarini ta'minlashga oid xalqaro huquqiy asoslar orasida **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 14-moddasi** alohida o'rinn tutadi. Ushbu modda shaxsning o'z mamlakatida ta'qibga uchragan holatda boshqa mamlakatdan boshipana izlash va undan foydalanish huquqini belgilaydi:

Har bir inson boshqa mamlakatlarda ta'qibdan boshipana izlash va undan foydalanish huquqiga ega. Bu huquq jinoiy bo'lмаган jinoyatlar yoki BMT tamoyillariga zid harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu norma xalqaro huquqda muhim tamoyil bo'lib, inson xavfsizligi davlat suverenitetidan ustun turishini bildiradi. Boshipana huquqi mutlaq bo'lмаганилиги, ya'ni jinoyat sodir etgan yoki BMT tamoyillariga zid harakat qilgan shaxslarga bu huquq tatbiq etilmasligi bilan chegaralangan.

- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966)**: Shaxs erkinligi, adolatli sudlov va harakat erkinligi singari huquqlarni kafolatlaydi.

1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR)** insonning asosiy erkinliklari va huquqlarini kafolatlaydigan asosiy xalqaro hujatlardan biridir. Ushbu pakt 1976-yilda kuchga kirgan bo'lib, 170 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Qochoqlar huquqlariga aloqador modda va prinsiplari

Garchi pakt bevosita "qochoqlar" terminini tilga olmasa-da, ularning huquqiy maqomini belgilashda muhim bo'lgan bir nechta moddalarni o'z ichiga oladi:

- 9-modda**: har bir insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (asossiz hibsga olinmaslik yoki erkinlikdan mahrum etilmaslik).



- **13-modda:** xorijlik shaxslarni chiqarib yuborish (deportatsiya) jarayonida adolatli va qonuniy tartibda qaror chiqarilishi lozimligi.
- **7-modda:** hech kim qiynoqqa solinmasligi yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy, qadr-qimmatni tahqirlovchi jazoga yoki muomalaga duchor qilinmasligi kerak.

Aynan 7 va 13-moddalar “**non-refoulement**” (**qaytarib yubormaslik**) prinsipining xalqaro huquqdagi asosini tashkil qiladi. Bu prinsipga ko‘ra, biror shaxs o‘z vataniga yoki boshqa hududga qaytarib yuborilganda u yerda uni qiynoq, ta’qib yoki inson qadr-qimmatini poymol qiluvchi xavf kutayotgan bo‘lsa, u davlat tomonidan deportatsiya qilinmasligi kerak.

4. **BMT Qochoqlar bo‘yicha Oliy komissariyati (UNHCR)** bu borada muhim xalqaro mexanizmdir.

BMT Qochoqlar bo‘yicha Oliy komissariyati (UNHCR) 1950-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi:

- Qochoqlarni himoya qilish,
- Ularga boshpana topishda yordam berish,
- Ixtiyoriy qaytish, joylashish yoki integratsiyaga ko‘maklashish,
- Qochoqlarning xalqaro huquqiy maqomini aniqlash va ularni xalqaro huquq orqali himoya qilishdan iborat.

UNHCR o‘z faoliyatini asosan **1951-yilgi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiya** va **1967-yilgi Protokolga** asoslab olib boradi. Shu bilan birga, u **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ICCPR**, va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg‘un ishlaydi.

UNHCRning huquqiy mexanizmlardagi roli

UNHCR qochoqlar uchun xalqaro darajada **yagona ixtisoslashgan agentlik** hisoblanadi. Uning huquqiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- **Monitoring va maslahat:** UNHCR davlatlarning qochoqlar bilan bog‘liq siyosatini nazorat qiladi va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.
- **Qochoq maqomini aniqlash:** Ayrim hollarda, ayniqlsa milliy qonunchilik mavjud bo‘lmagan davatlarda (masalan, O‘zbekiston) UNHCR to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxslarning qochoq maqomini aniqlaydi.
- **Sud ishlari va amaliyotga ta’siri:** UNHCR xalqaro va milliy sud ishlarida amicus curiae (maslahatchi) sifatida ishtirok etib, qochoqlarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi.

UNHCR faoliyati muhim bo‘lsa-da, uning imkoniyatlari cheklangan:

- U milliy sudlar yoki parlament darajasida qaror qabul qila olmaydi.
- Agar davlat Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan bo‘lsa, UNHCR faqat tavsiya xarakteridagi rolni bajaradi.

Shuning uchun ekspertlar UNHCRning samarali ishlashi uchun davlatlarning o‘z milliy qonunchiligini ishlab chiqishi va Konvensiyani ratifikatsiya qilishi zarur deb hisoblaydilar.

O‘zbekistonning pozitsiyasi

Bugungi kunga qadar O‘zbekistonn**1951-yilgi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyani** hamda unga qo‘srimcha bo‘lgan **1967-yilgi Protokolni ratifikatsiya qilmagan**. Shuningdek, **Qochoqlarning huquqiy maqomi to‘g‘risida milliy qonun** hali qabul qilinmagan.

Shu sababli, O‘zbekistonda qochoqlarga nisbatan aniq xalqaro huquqiy mexanizmlar asosida emas, balki mavjud migratsiya va milliy xavfsizlik siyosatiga tayanib yondashiladi.



Biroq, O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha o'z milliy strategiyalarida xalqaro tamoyillarga muvofiq harakat qilishga intilmoqda. Jumladan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi doirasida qabul qilgan majburiyatlar orqali va xalqaro ekspertlar tavsiyalarini qabul qilib, qochoqlar masalasida huquqiy asoslarni takomillashtirish borasida ijobjiy qadamlar tashlamoqda. Xususan, 2021-yil 4-iyunda "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lman shaxslarning huquqiy holati to'g'risida" gi 692-sون Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra chet el fuqarolari O'zbekistonda tegishli harakatlanish hujjati orqali yurish, kirib-chiqish huquqiga ega.

O'zbekiston **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktni 1995-yilda ratifikatsiya qilgan** va shu orqali mazkur hujjatdagi normalarni o'z zimmasiga majburiyat sifatida olgan.

Ammo, **qochoqlar maqomi haqida milliy qonunchilikni** ishlab chiqmaganligi, O'zbekistondagi xorijlik shaxslar, ayniqsa siyosiy ta'qibdan qochgan migrantlar uchun huquqiy noaniqlik tug'diradi.

Biroq, O'zbekistonning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashidagi yillik hisobotlarida va Davlatlararo davriy ko'rib chiqish (UPR) jarayonlarida xalqaro hamjamiyat tomonidan bu masalalar ko'tarilib, Konvensiyani ratifikatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar bildirilgan.

ICCPR qochoqlar huquqlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri huquqiy maqom bermasa-da, ularning asosiy erkinliklarini xalqaro miqyosda kafolatlaydi. Bu hujjatdagi moddalar qochoqlarni asossiz hibsga olish, qyinoq yoki noqonuniy deportatsiyadan himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston ushbu paktga qo'shilgan bo'lsa-da, u bilan bog'liq majburiyatlarni to'liq milliy qonunchilikka tatbiq etishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

UNHCR va O'zbekiston

➤ O'zbekiston haligacha 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilmaganligi va qochoqlarning maqomi to'g'risida milliy qonunga ega emasligi bois, **UNHCR O'zbekistonda muhim amaliy rol o'ynaydi**. Xususan, UNHCRning mintaqaviy vakolatxonasi O'zbekistonga huquqiy maslahatlar berib, **qochoqlarning maqomini aniqlash bilan bevosita shug'ullanmoqda**. O'zbekiston 1993 yilda UNHCR bilan hamkorlik qilish bo'yicha memorandum imzolagan va qochoqlarga nisbatan BMT ko'rsatmalariga amal qiladi. UNHCR, shuningdek, **xalqaro himoyaga muhtoj shaxslar** uchun hujjatlar tayyorlash, tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish faoliyatini ham olib boradi. UNHCR O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda **qochoqlar to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish** bo'yicha muloqot olib bormoqda.

Sudlov va inson huquqlari bo'yicha organlar amaliyoti

1. Hirsi Jamaa and Others v. Italy (2012), Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR)

Asosiy holat: Libiyadan Italiyaga yetib kelayotgan eritreyalik va somalilik qochoqlar Italiya flot tomonidan qaytarib yuborilgan. Ular insoniy munosabatdan mahrum etilgan, ruxsatsiz deportatsiya qilingan.

Sud qarori: ECHR Italiyani Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 3-moddasini (qiynoqqa duchor etmaslik) va 4-protokol 4-moddasini (omma bo'lib chiqarib yuborish taqiqlanishi) buzgan deb topdi.

Huquqiy tahlil: Bu ish "non-refoulement" tamoyilining buzilishi"ga doir misol bo'lib, davlatlar xalqaro suvda ham o'z yurisdiktsiyasi ostida bo'lgan shaxslarga nisbatan xalqaro huquqni buzmasligi kerakligi yoritilgan⁵.

2. M.S.S. v. Belgium and Greece (2011), Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR)

Asosiy holat: Afg'onistonlik muhojir Belgiyadan Gretsiyaga deportatsiya qilinadi. Gretsiyada u yomon sharoitda saqlangan, boshpana olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan.

⁵ ECHR, Hirsi Jamaa and Others v. Italy, Judgment of 23 February 2012, Application no. 27765/09.
<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-109231>



3. **Sud qarori:** Sud Gretsiya va Belgiyani Inson huquqlari konvensiyasining 3-moddasini buzishda aybdor deb topdi. Belgiyaning deportatsiyasi orqali shaxs noinsoniy sharoitga qaytarilgan.

Tahlil: Ish “Dublin II Reglamenti” ostida deportatsiya qilishda ham inson huquqlari buzilmasligi kerakligini ko‘rsatdi⁶.

4. Committee Against Torture, Complaint No. 233/2003 (Agiza v. Sweden)

Asosiy holat: Misrlik siyosiy faol Muhammad al-Zari va Ahmad Agiza Shvetsiyadan Misrga deportatsiya qilinadi, u yerda ular qyinoqqa solinadi.

Qo‘mita qarori: Qiynoqqa qarshi konvensianing 3-moddasi buzilgan deb topildi. Qiynoqqa uchrashi mumkin bo‘lgan davlatga deportatsiya – xalqaro huquqqa ziddir.

Tahlil: Qochoqlarni deportatsiya qilishdan oldin xavf tahlili o‘tkazilishi shart. “Non-refoulement” prinsipining kuchli mustahkamlovchi misollaridan biri⁷.

Xulosa

Qochoqlar huquqlarini ta’minlash, global miqyosda inson huquqlarining himoya qilinishi, davlatlararo hamkorlik va xalqaro qonunlarni samarali tatbiq etish masalalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, qochoqlarga nisbatan yondashuvlar o‘rtasida kurashayotgan asosiy g‘oyalar, ya‘ni inson huquqlari, davlat suvereniteti va global adolatning kesishgan nuqtalarini tahlil qilish orqali bu masala yanada murakkablashadi. Liberal huquqiy nazariya, qochoqlarni himoya qilishni xalqaro majburiyat sifatida ko‘rgan holda, davlatlarga qochoqlarning asosiy huquqlarini ta’minlashni talab qilmoqda. Realistik yondashuv esa suverenitetni ustun qo‘ygan holda, har bir davlat o‘zining siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlарини inobatga olib qaror qabul qilishda erkin bo‘lishini ta‘kidlaydi. Kosmopolit yondashuv esa global darajada hamjihatlikni rivojlantirishga urg‘u beradi va qochoqlarga yordam berishni butun insoniyatning axloqiy majburiyati sifatida belgilaydi.

Bunday yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishida, xalqaro huquqiy normalarning qarama-qarshiliklarga olib kelishi va davlatlarning ichki siyosatiga nisbatan cheklovlar borligi aniqlanadi. Xususan, O‘zbekiston kabi ba‘zi davlatlar 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan, bu esa qochoqlarning huquqlarini ta’minlashda jiddiy cheklovlar yaratadi. Shu bilan birga, davlatlar o‘rtasidagi har bir turdagи yondashuv va xalqaro huquq tamoyillari, ayniqsa “qaytarmaslik” prinsipining xalqaro amaliyotdagi zaifligi, qochoqlar huquqlarini ta’minlashga to‘sinqinlik qilmoqda.

Shu nuqtada, O‘zbekiston o‘zining milliy qonunchiligini yaxshilash, xalqaro tamoyillarga moslashtirish va UNHCR kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash zaruriyati yuksalmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha davlatlarning majburiyatları, mamlakatlarda qochoqlarni himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi omil bo‘lishi kerak. O‘zbekiston, ayniqsa, BMTning inson huquqlari bo‘yicha Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga amal qilish orqali, qochoqlarga nisbatan huquqiy kafolatlar yaratishda o‘z vazifalarini yanada samarali bajarishi mumkin.

Shu bois, qochoqlarning huquqlarini ta’minlashda xalqaro huquq va milliy qonunchilik o‘rtasidagi uyg‘unlikni kuchaytirish, hamda amaliyotdagi yondashuvlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, global va milliy xavfsizlik, barqarorlik va adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi konvensiya va uning Protokoliga qo‘shilish davlatlarning ixtiyoriy roziligi bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, Yaqin Sharq, Rossiya-Ukraina va Afg‘onistonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar zamirida qochoqlar masalasi 1951-yilgi konvensiyaga qo‘shilgan va xalqaro majburiyat olgan davlatlarga bir qancha iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Garchi, a’zo davlatlar

⁶ Manba: ECHR, M.S.S. v. Belgium and Greece, Judgment of 21 January 2011, Application no. 30696/09.
<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-103050>

⁷ Manba: CAT, Agiza v. Sweden, Communication No. 233/2003, UN Doc. CAT/C/34/D/233/2003 (2005).
<https://www.refworld.org/cases/CAT,42ce734a2.html>



o'rtaida hamkorlik yo'lga qo'yilgan va qochoqlarni qabul qiluvchi davlatlarga yordam mexanizmi ishlab chiqilgan bo'lsa ham qabul qiluvchi davlatlar bu amaliyotdan mamnun emas.

Yuqoridagi muammolar zamirida 1951-yilgi konvensiyaga qo'shilgan davlatlar O'zbekistonni ham ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilishga undamoqda. Ammo, qochoqlar bilar bog'liq yuqoridagi muammolar biz uchun ushbu xalqaro hujjatlarni qabul qilish va xalqaro majmuriyat olish masalasini qiyinlashtiradi. Chunki, rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston uchun moddiy va siyosiy jihatdan muammolar mavjud sharoitda ushbu xalqaro majburiyat ichki vaziyatni yana ham murakkablashtirishi mumkin. Shunga qaramay, O'zbekiston konvensiyaga a'zo bo'lish va inson huquqlarini xalqaro miqyosda ta'minlash yo'lidan borar ekan a'zo davlatlar bilan bu bo'yicha yordam mexanizmini aniqlab olishimiz zarur.

Takliflar

- Milliy qonunchilikni takomillashtirish:** O'zbekiston milliy huquq tizimida hozirgi vaqtida qochoq maqomini tartibga soluvchi alohida qonun mavjud emas. Buning natijasida, qochoqlarni huquqiy himoya qilishda tartibsizliklar va huquqlarini cheklash holatlari kuzatilmoqda.

Taklif: O'zbekiston Respublikasi Bosh Qomusiga muvofiq, maxsus "Qochoqlarning huquqlarini ta'minlash to'g'risida"gi qonunni qabul qilish kerak. Bu qonun nafaqat xalqaro huquqiy me'yorlariga mos kelishi, balki mamlakatda qochoqlarning asosiy huquqlarini ta'minlash uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.

- 1951-yilgi Konventsiyasini ratifikatsiya qilish:** O'zbekiston 1951-yilgi Konventsiyasini ratifikatsiya qilmagan va shuningdek, uning 1967-yildagi protokolini qabul qilmagan. Ushbu konvensiyalar, ayniqsa, qochoqlarning huquqlari va himoyasi masalasini aniq belgilaydi.

Taklif: O'zbekiston hukumati xalqaro me'yorlarga muvofiq bo'lish maqsadida, 1951-yilgi Qochoqlar Konventsiyasini ratifikatsiya qilishi va unga qo'shilishi zarur. Bu, o'z navbatida, mamlakatning xalqaro huquqiy obro'sini oshiradi va qochoqlarning huquqlarini yaxshiroq ta'minlashga imkon yaratadi.

- Qochoqlarga oid milliy mexanizmlar va organlar tashkil etish:** Qochoqlarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus davlat organlari va institutlar rivojlanmagan. Bu holat, ularning huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Taklif: O'zbekiston Respublikasi hukumati, qochoqlarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha maxsus davlat idoralarini tashkil etish zarur. Bu organlar davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qochoqlarga huquqiy yordam ko'rsatishni ta'minlashi kerak.

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:** O'zbekistonning qochoqlarga oid asosiy xalqaro huquqiy me'yorlarga qo'shilmaganligi va qochoqlarga yordam ko'rsatishda cheklovlar mavjudligi tufayli, mamlakatga xalqaro yordam ham yetarli emasligicha qolmoqda.

Taklif: O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va UNHCR (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar bo'yicha Yuqori Komissari) bilan hamkorlikni kuchaytirishi kerak. Shuningdek, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda qochoqlarning huquqlarini ta'minlashga doir aniq dasturlarni ishlab chiqish zarur.

- Mahalliy jamoat va jamiyatni tayyorlash:** Qochoqlarga oid jamiyatda yetarlicha ma'rifat va yondashuv mavjud emas, bu esa ko'plab noto'g'ri tushuncha va diskriminatsiyaga olib keladi.

Taklif: O'zbekiston jamoat va ta'lif muassasalarida qochoqlarning huquqlari, ularning huquqiy himoyasi, va ularning jamiyatga qo'shilishini yaxshilashga doir o'quv kurslarini joriy qilish kerak. Bu nafaqat noijtimoiy toleransiyani kamaytirishga yordam beradi, balki qochoqlarga ham huquqiy himoya va yordamni oshiradi.

- Qochoqlarning huquqlarini kuzatish va monitoring qilish tizimi yaratish:** Qochoqlarning huquqlari bo'yicha davlatning monitoring tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa bir qator huquqiy buzilishlarga olib kelishi mumkin.



Taklif: O‘zbekiston hukumati, qochoqlarning huquqlari bo‘yicha monitoring tizimini yaratish va rivojlantirish kerak. Bu tizim qochoqlarning huquqlarini kuzatib borish, ularning huquqiy muammolarini tahlil qilish va kerakli choralarini ko‘rishga imkon beradi.

7. Qochoqlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mustahkam kelishuv va hamkorlik mexanizmini yaratish:

Taklif: 1951-yilgi konvensiyaga a’zo davlatlarning hozirgi vaziyatini va O‘zbekistonning rivojlanayotgan davlat ekanligini inobatga olib qochoqlar masalalari bo‘yicha ishtirokchi davlatlar bilan amaliy yordam masalasini aniq kelishib olish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1951 Geneva Convention Relating to the Status of Refugees.
2. 1967 Protocol Relating to the Status of Refugees.
3. Goodwin-Gill, G. S., & McAdam, J. (2007). *The Refugee in International Law*. Oxford University Press. Part 1, REFUGEES: 15-49 pages.
[https://books.google.co.uz/books?id=Rd_eDAAAQBAJ&printsec=frontcover#v=onepage&q&f=falsetrue](https://books.google.co.uz/books?id=Rd_eDAAAQBAJ&printsec=frontcover#v=onepage&q&f=false)
4. Hathaway, J. C. (2005). The Rights of Refugees under International Law. Cambridge University Press.
5. United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights.
6. United Nations. (1951). Convention relating to the Status of Refugees.
7. Universal Declaration of Human Rights, 1948.
8. International Covenant on Civil and Political Rights, 1966.
9. ECHR, Hirsi Jamaa and Others v. Italy, Judgment of 23 February 2012, Application no. 27765/09.
<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-109231>
10. ECHR, M.S.S. v. Belgium and Greece, Judgment of 21 January 2011, Application no. 30696/09.
<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-103050>
11. O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyasi. www.lex.uz
12. UNHCR official website: www.unhcr.org.

